

BULUNG'UR TUMANI SHEVALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Bekmurodova Nilufar Dilshod qizi

Ilmiy rahbar: O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti

Yusupov Sardor Shodi o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqolada Bulung'ur tumani shevasining o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada hudud aholisi nutqida qo'llanadigan ayrim sheva birliklari adabiy til shakllari bilan qiyoslangan holda yoritib berilgan. Shuningdek, shevada uchraydigan tovush almashinuvi, qisqarish hamda mahalliy so'zlarning qo'llanishi misollar asosida ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari Bulung'ur shevasining o'zbek tilining boy va rang-barang shevalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Dialektologiya, sheva, Bulung'ur shevasi, leksik birliklar, fonetik xususiyatlar, mahalliy so'zlar, o'zbek tili.

ОСОБЕННОСТИ ГОВОРА БУЛУНГУРСКОГО РАЙОНА

Аннотация. В данной статье анализируются своеобразные фонетические, лексические и грамматические особенности говора Булунгурского района. Некоторые диалектные единицы, используемые в речи местного населения, рассматриваются в сравнении с их литературными формами. Также на основе примеров показаны явления звуковых изменений, сокращений и употребления местных слов. Результаты исследования свидетельствуют о том, что булунгурский говор является одним из богатых и разнообразных говоров узбекского языка.

Ключевые слова: диалектология, говор, булунгурский говор, лексические единицы, фонетические особенности, местные слова, узбекский язык.

PECULIAR FEATURES OF THE BULUNGUR DISTRICT DIALECT

Abstract. This article analyzes the distinctive phonetic, lexical, and grammatical features of the Bulungur district dialect. Some dialectal units used in the speech of local residents are examined in comparison with their literary language equivalents. In addition, sound changes, reductions, and the use of local words found in the dialect are illustrated through examples. The results of the study indicate that the Bulungur dialect is one of the rich and diverse dialects of the Uzbek language.

Keywords: dialectology, dialect, Bulungur dialect, lexical units, phonetic features, local words, Uzbek language.

O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan farqlanadi. O'tgan tarixiy davr ichida o'zbek shevalari to'xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda sheva, dialekt, lahja terminlari qo'llanadiki, ularning lug'aviy va terminologik ma'nolarini bilish, albatta, zarur.

Sheva forsha so'z bo'lib "ravish, tarz, yo'sin" - degan ma'nolarni bildiradi [1:4] va dialektologiya fanida o'ziga xos leksik, fonetik hamda grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilning kichik territoriyaga oid qismini anglatadi. J.K.Chambers, Peter Trudgillning belgilashicha, sheva - muayyan tilning tarkibiy qismidir.

Dialekt so'zi yunoncha bo'lib, sheva, so'zlashish degan ma'nolarni bildiradi va aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi.

Dialektologik termin sifatida qadimdan o'zbek tilining taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarning eng yirik to'ldasini anglatadi.

O'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan.

Ular qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi, o'g'uz lahjasidir.

Bulung'ur tumani shevasi o'zbek dealiktologiyasida "j" - lovchi qipchoq shevalari guruhiga kiradi. Samarqand shahrining o'zida qarluq lahjasi (eronlashgan shahar shevasi) ustun bo'lsa, Bulung'ur kabi tumanlarda sof qipchoq shevasi elementlari saqlanib qolgan.

Bulungʻur shevasining qarluiq lahjasidan ajralib turuvchi asosiy qipchoqcha xususiyatlari quyidagilardan iborat:

“j” - lash: adabiy tildagi va qarluiq lahjasidagi “y” harfi bilan boshlanadigan soʻzlar Bulungʻur shevasida “j” bilan aytiladi:

Yuribman – juribman

yeysanmi? – jeysanma?

yetdik – jetdik.

Bundan tashqari Bulungʻur shevasida soʻz oxiri yoki oʻrtasida “g” undoshi “v” tovushiga almashadi:

togʻ – tov

bogʻ – bov

sogʻ – sov

Qolaversa, Bulungʻur tumanida oʻzaro muloqot va yigʻinlarda oʻziga xos maʼno anglatuvchi soʻzlar koʻp uchraydi. Masalan, Bulungʻur shevasida koʻp qoʻllaniladigan “Ayna” soʻzi adabiy tilda “aylanay”, “oʻrgilay”, “sdaqang ketay” maʼnolarini beradi. Misol: Ayna, kel, choy- poyingni ichib olgin.

Bulungʻur shevasida “sovbat” soʻzi ham qoʻllanilib, adabiy tildagi “gap-gashtak” yoki oʻtirish maʼnosini anglatadi. Tengqurlar yoki qoʻshnilarning navbatma-navbat mehmonchilik qilish marosimlariga aytiladi. Misol: “Joʻralar, keyingi sovbat menikida oʻtiraverasizlar”

Adabiy tilda “-ni” tushum kelishigi Bulungʻur shevasida “-di” tarzida talaffuz qilinadi. Misol uchun,

Kitobni – kitabdi

koʻrpangni – koʻrpangdi

Bundan tashqari Bulungʻur shevasida soʻzlaydigan sheva vakillari ayrim ovqat nomlarini ham oʻzgacha aytishadi, misol uchun, “janjmich” deb nomlangan ovqat turi boʻlib, yongʻoq, mayiz va talqon aralashtirib, ezib tayyorlanadigan qadimgi shirinlik turi. Bulungʻur shevasida adabiy tildan sezilarli ravishda farq qiladigan soʻzlar ham kundalik hayotda uchraydi, misol uchun shevada ishlatiladigan “qoʻqim” soʻzi adabiy tilda

“chiqindi”, “kubi” – soʻzi qatiqning yogʻini ajratish uchun ishlatiladigan jihoz, “urrop” soʻzi adabiy tilda “oʻgʻirlab”, “andi” soʻzi “sodda kishi”, “doʻqigʻich” adabiy tilda “qorishtirgich” maʼnolarini anglatadi.

Umuman olganda, Bulungʻur tumani shevasi oʻzbek dialektologiyasida muhim oʻrin egallab, tilimizning tarixiy taraqqiyotini oʻrganishda qimmatli manba boʻlib xizmat qiladi. Bunday shevalarni chuqur oʻrganish oʻzbek adabiy tilining boyishini, uning tarixiy ildizlarini yanada toʻliqroq anglashni taʼminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Ashirboyev Samixon. Oʻzbek dialektologiyasi. Darslik. Toshkent, Navroʻz, 2016, 136 b.
2. V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov “Oʻzbek dialektologiyasi” Toshkent. 1978
3. Oʻzbekiston SSR fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati. Toshkent. 1971